Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317844

tasnif ob’yektlariga berilgan guruxlashtirish kodlari buyicha daromadlar va xarajatlar guruxlanadi.

Byudjet ma’lum vaqt — hafta, oy yoki yil davomida daromad va xarajatlarning umumiy miqdorini ko‘rsatib beradi. U davlat, kompaniya, ma’lum bir inson yoki oilaniki bo‘lishi mumkin.

Ma’lumki, mahalliy byudjetga soliqlar va boshqa daromadlar asosan oyning uchinchi o‘n kunligida tushadi va bu o‘z navbatida byudjet tashkilotlarining ish haqi to‘lovlarini o‘z vaqtida moliyalashtirilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu holatlarni bartaraf etish maqsadida, shuningdek shahar tumanlarda byudjet tashkilotlarining asosiy qismini tahlim va sog‘liqni saqlash muassasalari tashkil qilishini inobatga olib, mazkur sohalar bo‘yicha ish haqi xarajatlarini o‘z vaqtida mablag‘ bilan ta’minlash maqsadida respublika byudjetidan maqsadli ijtimoiy transfertlar ajratilishi belgilandi.

Foydalanilgan me’yoriy xujjatlar va adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti tasnifini kullash buyicha yuriqnoma (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 11 oktyabrda 2146-son bilan ruyxatga olingan).
2. Ostonaqulov M. Davlat byudjeti gazna ijrosining buxgalteriya xisobi. -T.:2009 yil.
3. M. Ostonaqulov. Byudjet hisobi va tasnifi. Журнал Экономика и финансы (Узбекистан), 2010 yil.
4. Mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash va moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022 yil 16 avgust, PQ-353-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori.
5. 2017 yil 8 avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3182-sonli qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 dekabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4904-sonli Farmoni.

AXOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDA ISH BILAN BANDLIKNI RIVOJLANTIRISH YO’LLARI

O.X.Maxmudov
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti, professori
Iqtisod fanlari doktori
E-mail: maxmudovodiljon1965@gmail.som

Published: 24.05.2025

Cite this article: O.X.Maxmudov, M.N.Orziqulova (2025). Axoli farovonligini oshirishda ish bilan bandlikni rivojlantirish yo’llari. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317844

© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

M.N.Orziqulova
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti “Iqtisodiyot”
yo’nalishi 1-boshqich talabasi
E-mail: malikaxon710@gmail.som

Annotatsiya: Matnda bandlike, ta’lim tizimi, va mehnat bozorining o’zgarishi haqida so’z boradi. Bandlike faqatgina ishga joylashish bilan cheklanmasdan, shaxsiy tadbirkorlik va masofaviy ishlash imkoniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Davlat va ta’lim tizimi mehnat bozoriga moslashishi, yangi ish shakllari va amaliyot orqali talabalarni tayyorlash zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so’z: Bandlik, ta’lim tizimi, mehnat bozori, tadbirkorlik, masofaviy ish, frilanser, sanoat ehtiyojlari

Xar bir jamiyatda axolini yashash tarzini yaxshilash va ularni daromadlarini muntazam ravishda oshirish doim dolzar xisoblanib kelgan.SHuning uchun axolini farovonligini oshirish uchun ish bilan bandlik, samarali bandlikni ta’minlash zaruratga aylanib kelinmoqda. Aholi bandligi bu biror ishlab chiqarish yoki xizmat ko’rsatish muossasida shaxsni o’z ehtiyojlarini qondirishi uchun qonun hujjatlariga zid kelmaydigan ravishda ularga ish haqi yoki mehnat daromadi keltiradigan faoliyat turiga aytiladi.U ijtimoiy-iqtisodiy munosabat hisoblanib, insonlarni yashash darajasini belgilab beradi deyish mumkin. Negaki insonlar band bo’lish orqali o’zlariga va albatta oilalariga muayyan yashash tizimini yaratadilar. Bandlik deganda shunchaki ishga joylashishni emas, rivojlanishni nazarda tutish kerak. Agarda bandlik deganda hozirda ommalashgan o’z honadonini bir honasini shaxsiy do’kon sifatida ochib, faoliyat yuritayotgan shaxslarni ham o’ylasak, bandlik faqatgina yollanma ishchi sifatida ishlash bilan cheklanmaydi. Aksincha o’z o’zini band qilganlarni ham ular sarasiga kiritamiz. Aholining bunday qatlami davlatga biroz bo’lsa ham yordam berishga harakat qiladi desak hato bo’lmaydi menimcha. Sababi 2024-yilgi ko’rsatgichlarga ko’ra rivojlanayotgan davlatlar o’rtasida ham ishsizlik darajasi 5.2% ni tashkil qilayotgan bir paytda bundan insonlar o’zlarini band qilish bilan shug’ullanib, davlatga o’zlarining tashabbuskorligi va mehnatsevarligini ko’rsatib kelishmoqda.

SHu o’rinda aholini bandligini taminlashda davlatning rolini ham hisobga olishimiz kerak. Aynan bizning Rkspublikamizda bandlikni taminlash uchun judayam katta rejalar mavjud bo’lib, har biri sekin asta amalga oshmoqda. Misol tariqasida “Har bir oila tadbirkor” dasturini keltirish mumkin. U 2017-yili tuzilgan dastur bo’lib asosiy

maqsadi oilaviy tadbirkorlikni kengaytirish orqali bandlikni taminlash va kambag’allikni qisqartirish hisoblanadi.

Har birimizga ma’lumki kundan kunga emas har bir soatda o’zgaruvchan zamonda yashayabmiz. SHunday ekan bandlikni taminlash sohasida ham ko’plab yangiliklar mavjud. Hozirgi kunda ish o’rinlarining yangi turlari shkillanyabdi. Bazi ishlarni masofaviy bajarish mumkin holatga keltirilmoqda. Hisobchilikdan to hattoki haydovchilikkacha.YAngi shunaqangi mashinalar ihtiro qilinmoqdaki, ularni uydan turib boshqarish imkoniyatlari paydo bo’lmoqda. Bundan tashqari frilamserlik, onlayn ish shakllari shakillanmoqda. Bu esa gegrafik cheklovlarsiz ishlashga yordam bermoqda.

Ommaviy foydalanayotgan “yordamchimiz” ijtimoiy tarmoqdan ham samarali foydalanib, undan ham daromad olish yo’llari mavjud. Dasturchilar, dizaynerlar, tarjimonlar, kontent yaratuvchilar va hatto marketing sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar masofaviy tarzda ishlash orqali daromad olishmoqda. Bu faqatgina ishchi qatlamda emas, balki kichik biznesni ham rivojlantirmoqda.

Biroq bandlikni taminlashda ham qiyinchiliklar va kamchiliklar mavjud. Bunga eng birinchi o’rinda ish o’rinlarni cheklanganligini olishimiz mumkin. Har qancha urunmaylik albatta ish o’rinlari cheklangan. Sababi mehnat bozorida talab va taklif o’rtasida nomutanosiblik mavjud. Bu kamchlikni bartaraf etish juda qiyin masala deyish mumkin. Misol tariqasida tasavvur qilaylik. Bir bola 2015-yil universitetga bugalteriya sohasiga o’qishga qabul qilindi. Demak 4 yil hech qanaqangi uzilishlarsiz o’qisa, u 2019-yili o’qishni bitiradi. Bundan ko’rinib turibdiki u eng uzog’i 2015-yilgacha bo’lgan holatlardan habardor bo’ladi. YA’ni u korxona yoki firmalarda hisobchilar qanaqangi dasturlarda, qaysi hujjatlar bilan ishlaganligini 2015-yilgacha bo’lgan davrni bilishi mumkin. U o’qiyotgan vaqtda qanday o’zgarishlar bo’lishini esa hech kim bilmaydi va bularni unga o’rgata olmaydi. SHu sababli ishga joylashishi anchagina qiyin bo’ladi. Ko’rinib turibdiki bu yerda talab 2019-yilgacha bo’lganini biluvchi shaxs, lekin taklif esa 2015-yilgacha holos. Mening fikrimcha buning yechimi bitta, u ham bo’lsa ta’lim tizmini yangiliklarga moslashishi bo’lishi mumkin. YAni har bir bo’lajak kadrni ko’proq amaliyot bilan tanishtirish va unga moslashtirish.Bandlikni rivojlantirish hozirgi kunda faqatgina davlat zimmasidagi vazifa emas, balki fuqrolar o’z ustida muntazam ravishda ishlab tashabbus ko’rsatishsa, harakat qilishsa faqatgina o’zini emas oila a’zolarni ham yaxshi yashashi uchun harakat qilayotgan hisoblanadi. SHu bilan birga xar bir oila o’zining ish bilan bandligini ta’minlash bilan birga turmsh darjasi yaxshilanish farovonlig ortga bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q.X.Abdurahmonov, N.T.Shoyusupova Aholini ish bilan bandligi Toshkent-2013
2. M.M.Muhammedov, S.A.Ishaqova, B.B.Mardonov Qishloqlarda aholi bandligi; muammolar va yechimlar. Monografiya\ Samarqand; “Zarafshon” nashriyoti 2014.
3. Lex.uz sayti “Har bir oila-tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida https://lex.uz/acts/-3772869
4. International Labour Organization (ILO). (2024). World Employment and Social Outlook – Trends 2024.
5. International Labour Organization (ILO). (2024). World Employment and Social Outlook – Trends 2024. https://www.ilo.org/global/research/global-reports/weso/2024/lang--en/index.htm

КИЧИК БИЗНЕСНИ ИНВЕСТИЦИОН САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ АМАЛИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Эргашев Илҳомжон Икромович,
и.ф.ф.д (PhD) доцент
Андижон давлат техника институти
“Иқтисодиёт” кафедраси доценти,
ergashev_1980@list.ru

Аннотация. Мақолада инвестицион самарадорликни баҳолашнинг миллий услубиётини ишлаб чиқишда мамлакат иқтисодиёти учун хос бўлган, республика иқтисодиётининг турли соҳа ва тармоқлари учун умумий хусусиятларни ўзида акс эттира оладиган универсал таҳлилий ёндашувлар акс эттирилган. Корхоналарнинг инвестицион фаолияти самарадорлигига таъсир кўрсатувчи омилларни ўзаро алоқадорлик даражасидан келиб чиққан ҳолда турли гуруҳларга ажратиш юзасидан таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Таянч иборалар: инвестицион салоҳият, экспорт, импорт, компонентли ёндошув, рақобат, ўсиш нуқтаси, амортизация, тизимли ёндошув, Ялпи даромад, дисконтланган соф даромад, пул оқими, қоплаш муддати, дотация, ички даромадлилик нормаси, рискларга нисбатан сезувчанлик индекси*.*

Бугунги кунда жаҳонда, жумладан, мамлакатимизда амалга оширилаётган туб таркибий ислоҳотлар натижасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик иқтисодий ўсиш барқарорлигини таъминлашнинг муҳим омили сифатида баҳоланмоқда. Хусусан, сўнгги йилларда мамлакатимиз иқтисодиётининг турли соҳа ва тармоқлари ривожланиш даражасининг барқарорлигини таъминлаш, янги